

Ergashev M.A.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrası assistenti

Sulxonov D.A.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali 3F-21YOKI guruh talabasi

sulxonovdiyorbek2@gmail.com.

RUDANI SHPURLAR OQALI MASSIVDAN AJRATISH BILAN MAGAZINLASHTIRIB QAZIB OLISH TIZIMIDA TAYYORLASH ISHLARI


Annotatsiya: Ushbu maqolada magazinlab qazib olish tizimining shpur zaryadlari bilan ajratib olish varianti ko‘rib chiqilgan, aynan shu shpur zaryadlari bilan massivdan ajratib olishda ruda tanasi yotish sharoitlari, yotish burchagi, ruda tanasi qalinligi, kon bosimi yuzaga kelishi, shaxsdagi yo‘qotilishlar va ularni bartaraf qilish, bu tizimning unumdorligini oshirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ruda, magazinlashtirish, kesuvchi lahim, ruda yo‘qotilishi, shtrek, yotish burchagi, kon bosimi, shpur, portlovchi modda.

Ushbu tizimda tayyorlovchi va kesuvchi lahimlarning joylashtirilishi magazinlashgan rudani blokdan tez, uzluksiz va unumdorlik bilan chiqarilishini taminlash kerak. Chunki bu tizim samaradorligini rudani blokdan chiqarish ko‘rsatkichlari ifodalaydi. Bu tizimda rudani blokdan chiqarish ishlari qazib olish va tayyorlash ishlaridagi umumiy mehnat hajmining 25 % dan 50 % gacha bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Bundan tashqari rudani blokdan chiqarishdagi to‘xtalishlar shaxta tashish transporti ishiga salbiy tasir ko‘rsatishi, rudani chiqarishida yuzaga keladigan tiqilishlarni portlatish yordamida bartaraf etish uchastka ishini izdan chiqarishi, ruda tushirgich mustahkamlagichlarini tamirlash uchun harajatlarning o‘sishi va tashish shtregi asosini tozalashlarga ko‘p kuch sariflanishiga olib keladi.

Tashish shtreki odatda ruda tanasi qalinligi bo‘yicha o‘rtasida joylashtiriladi. Yotish burchagi 700 gacha bo‘lgan, juda qalin ruda tanalarida esa tashish shtreki ruda tanasining yotgan tomoni yaqinidan o‘tiladi. Buning asosiy sababi massivdan ajratilgan ruda, ruda tanasining osiilgan tomonidan osonlik bilan tushib yotgan tomonga qiyalashadi.

Shtrek yon tomonidagi seliklarni qazib olishi qulay bo‘lishi, xamda shtrek usti seliklarni qoldirmaslik uchun tashish shtreki ruda tanasining yotgan tomonidagi puch tog‘ jinslaridan o‘tiladi (124-rasm). Bu xolatda ruda tushirgichlar 1 har 8–10 m masofada joylashtiriladi, ular ustidan blok tagini kesuvchi shtrek 2 o‘tkaziladi. Kesuvchi shtrekdan ruda tushirgichlar yarim ellips shaklida kengaytirilib barpo qilinadi. Qavatlararo seliklarda ruda yo‘qotilishini kamaytirish va ishlarni olib borishning qulayligi puch tog‘ jinsida barpo etiladigan tashish shtregi xarajatlarini bemalol qoplaydi.



124-rasm. Blokni “dala”

shtreklari bilan tayyorlash.

Yupqa, tomirsimon ruda tanalarini qazib olishda shtrekga odatdagiday, kuchaytirilgan tirgak mustaxkamlagich romlari oʻrnatiladi va shtrek usti seliklari qoldirilmaydi. Mustaxkamlagichlar balandligi 50 m boʻlgan kameradagi magazinlashgan ruda ogʻirligini emas, balki qalinligi katta boʻlmagan qatlamda xosil boʻlgan tabiiy gumbaz ichidagi ruda ogʻirligini ushlab turishi bilan ularning ishonchliyligi izoxlanadi. Mustaxkamlagichlar uchun eng asosiy xavf uncha katta boʻlmagan va doimiy bosim emas, balki atrof togʻ jinslarining tayanch bosimidan va ajratiladigan rudaning qulashidan paydo boʻladigan dinamik zarbadir. Rudani magazinlashtirib qazib olish tizimining barcha variantlarida kameralarga odamlarning oʻtishi va shamolatish uchun bloklararo seleklarda yuqorilovchi lahimlar barpo qilinadi. Har bir kamerada havfsizlikning yagona qoidalariga muvofiq ikkitadan kam boʻlmagan kirish va chiqish yoʻllari boʻlishi kerak.

Ushbu qazib olish tizimlarida qavat balandligi 30–90 m, koʻpincha 40–60 m qabul qilinadi. Shu oʻrinda qavat balandligining ortishi qavatlararo seliklardagi ruda yoʻqotilishi kamayishiga va qavatdagi ruda zahirasiga nisbatan tayyorlash ishlarining arzonlashishiga olib keladi. Ammo yumshatilagan ruda maʼlum darajada jipslashishiga va uni chiqarishda qazib olish joyi asosi tekis shakllanmasligiga sabab boʻladi. Tashish shtregi shipi usti selegi qalinligi rudatushirgichlar oraliq masofasini, ruda tanasi qalinligini va ruda mustahkamligini hisobga olgan holda grafik usulda aniqlanadi.

Shamolatish shtregi tag seligining balandligi tomirsimon ruda tanasining qalinligi 1–1,2 m boʻlganda 2 m gacha qabul qilishga ruxsat beriladi. Tomirsimon ruda tanasining qalinligi kattaroq boʻlsa, selik qalinligi 3–4 m gacha boʻlishi mumkin. Selik qalinligi ishchi xodimlarning shtrek boʻylab yurishidagi havfsizligini taʼminlashi kerak.

Kameralararo selik kengligi ruda tanasi qalinligiga, atrof togʻ jinslarining turgʻunligiga, rudaning mustahkamligiga va qiymatiga bogʻliq ravishda 3 m dan 6–8 m gacha qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sohibov I. Y. et al. QIZIL-OLMA //KONI SHAROITIDA KON LAHIMLARIDAGI KON BOSIMINI EXAMINE 2D KOMPYUTER DASTURIDA HISOBLASH ISHLARINING

ТАНЛИЛИ//Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 2414-2424.

2. Хайитов О. Г., Худайназаров Т. М., Эргашев М. А. ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ УЧАСТКИ ФИЛИАЛА «РАЗРЕЗ АНГРЕНСКИЙ» //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 119-127.

3. Алимов Ш. М., Эргашев М. А., Ўралбоева Д. Ф. МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СТЕПЕНИ ДРОБЛЕНИЯ ГОРНЫХ ПОРОД //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. –Т. 2. – №. 13. – С. 625-627.

4. Хасанов А. С. и др. ИЗУЧЕНИЕ ЗОЛОТА В ПРОБЕ РУДЫ МЕСТОРОЖДЕНИЯ «ЕШЛИК I» //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 236-242.

5. Axbaraliyevich E. M. FOYDALI QAZILMA KONLARINI OCHIQ USULDA QAZIB OLI SHDAN BO'SHAGAN MAYDONLARNI REKULTIVATSIYASI QILISH JARAYONINING BOSQICHLARI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 26. – С. 226-228.

6. Turg'unov F. F., Zuxritdinov D. X. YOSHLIK-1 KARYERI MISOLIDA RUDA ZAXIRASINI QAZIB OLI SHDA HOSIL BO'LGAN NOGABARIT BO'LA KLARNI ELEKTR ZARYAD USULI BILAN MAYDALASH ASOSLARI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 37. – С. 74-81.

7. Бакиров Г. Х. и др. ОБОСНОВАНИЕ ПРИНЦИПОВ ВЫБОРА КОНСТРУКЦИИ И ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ КРЕПИ ПОДЗЕМНЫХ ВЫРАБОТОК //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 162-167.

8. Ahror o'g'li S. D., Xusniddin o'g'li Z. D. QIYA KON LAHIMLARIDA MAXSUS LENTALI KONVEYERLARDAN FOYDALANISH //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 38. – С. 47-51.

9. Ahror o'g'li S. D., Qahramon o'g'li S. S., Xusniddin o'g'li Z. D. GORIZONTAL TAYYORLOVCHI LAHIMLAR, ULARNING KO'NDALANG KESIMI VA JOYLASHISHI //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 38. – С. 42-46.

10. Ahror o'g'li S. D., Jaloliddin o'g'li N. T., Xusniddin o'g'li Z. D. SHAHTA SHAMOLLATISH TIZIMIDAN FOYDALANIB MEKANI K ENERGIYANI ELEKTR ENERGIYASIGA AYLANTITISH //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 37. – С. 170-174.

11. Toshtemirov U. T., Axmadov U.A., (2018). Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning ba'zi bir jihatlari. Scienceweb academic papers collection.

12. Ш.М. Алимов, У.А. Ахмадов. ПОВЫШЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ БОРТОВ ПРИ ВЕДЕНИИ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ В МЕСТОРОЖДЕНИЕ «ЕШЛИК-1» // O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. - 2023. – Т. 2. №. 18. – С. 79-82.

13. Ф.У. Исакулов, У.А. Ахмадов. ВЫБОР ОПТИМАЛЬНОГО ДИАМЕТРА СКВАЖИН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ВЗРЫВНЫХ РАБОТ НА УГОЛЬНОМ МЕСТОРОЖДЕНИЕ «РАЗРЕЗ АНГРЕНСКИЙ» // IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 37. – С. 175-180.

14. Ф.У. Исакулов, У.А. Ахмадов. YOSHLIK 1 KONI MISOLIDA SAMARALI SKVAJINA ZARYADI KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHI QISH. // IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – Т. 4. – №. 37. – С. 194-201.

15. Isakulov F. U. ANGREN KO'MIR KONI MISOLIDA BURG 'ILASH QURULMALARINI ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISH //IMRAS. – 2024. – Т. 7. – №. 1. – С. 275-279.

16. Azimov O. A. et al. KARYER SUVLARIDAN OQILONA FOYDALANISH ORQALI, KARYERLARDA CHANG VA ZAHARLI GAZLARNI NEYTRALLASHTIRISH //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 3. – C. 1-7.
17. Turg'unov F. F., Abdiyev O. X. MA'DANLI KARYERLARNING CHUQUR GORIZONTLARINI QAZIB OLISHDA MEXANIZATSIYALASH VOSITALARI VA TEXNOLOGIK O'LCHAMLARINI ASOSLASH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 678-680.
18. Turg'unov F. F. ANGREN RAZREZIDA QO'LLANILAYOTGAN EKSKAVATOR CHO'MICHI KESUVCHI ELEMENTLARINING ISHLASH MUDDATINI OSHIRISH //Uzbek Scholar Journal. – 2023. – T. 14. – C. 37-39.
19. FF Turg'unov, DX Zuxritdinov YOSHLIK-1 KARYERI MISOLIDA RUDA ZAXIRASINI QAZIB OLISHDA HOSIL BO'LGAN NOGABARIT BO'LAKLARNI ELEKTR ZARYAD USULI BILAN MAYDALASH ASOSLARI // IJODKOR O'QITUVCHI. – 2024. – T. 4. – №. 37. – C. 74-81.
20. Erkaboyeva S. I., Sulxonov D. A., Ulashov D. Z. CHUQUR KARYERLARDA RESURSLARNI TEJAYDIGAN VA EKOLOGIK TOZA TRANSPORT TIZIMI //IMRAS. – 2023. – T. 6. – №. 8. – C. 153-157.
21. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A., Ramanov X. S. BIR YARUSLI AG'DARMALARNI XOSIL QILISH NAZARIYASI VA AMALIYOTINI O'RGANISH //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 2. – №. 17. – C. 49-51.
22. Erkaboyeva S. I., Malikov M. A. CHUQUR KARYER BORTLARINING QIYALIGIDA ICHKI AG 'DARMALARNI XAVFSIZ SHAKLLANTIRISH SHARTLARINI TADQIQ QILISH //IMRAS. – 2024. – T. 7. – №. 1. – C. 174-179.
23. Erkaboeva S. I., Sulxonov D. A. MURUNTOV KARYERINING ISHSIZ BORTLARIDA ICHKI AG 'DARMALARNING PARAMETRLARINI ILMIY ASOSLASH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 211-215.
24. Erkaboyeva S. I., Yunusov A., Samadova G. M. AG 'DARMALAR XOSIL QILISHNING MUXANDIS-GEOLOGIK TAXLILI //IMRAS. – 2024. – T. 7. – №. 1. – C. 792-797.
25. Д. М. Курбанбаев, С. И. Эркабаева, И. М. Рахматуллаев, & А. У.Ахмадов. (2022). ВИДЫ, СВОЙСТВА И ОТРАСЛИ ПРИМЕНЕНИЕ ИЗВЕСТНЯКОВ. Uzbek Scholar Journal, 11, 28–32.